


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 703 tani tashkil etadi, shundan 21 234 tasi yoki 79,5 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan 93,7 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 91,8 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	26 703	21 370	21 234
2024	28 484	23 267	23 130
2023	29 439	24 278	24 149
2022	43 815	38 402	38 256
2021	40 774	35 749	35 617

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Andijon shahrida – 26,7 foiz, Andijon – 8,2 foiz, Asaka – 7,6 foiz, Shahrixon – 6,9 foiz va Baliqchi – 5,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi salmoqli ulushi Andijon tumanida – 84,2 foiz va 84,0 foiz, Andijon shahrida – 84,0 foiz va 83,2 foiz, Xo'jaobod – 80,4 foiz va 79,6 foiz, Ulug'nor – 80,2 foiz va 79,8 foiz hamda Marxamat – 79,9 va 79,1 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Oltinko'l tumani	1 419	1 129	1 122
Andijon tumani	2 189	1 843	1 838
Baliqchi tumani	1 557	1 231	1 227
Bo'ston tumani	917	731	727
Buloqboshi tumani	793	580	575
Jalolquduq tumani	1 163	857	854
Izboskan tumani	1 382	1 071	1 070
Ulug'nor tumani	840	674	670
Qo'rg'ontepa tumani	1 420	1 080	1 075
Asaka tumani	2 027	1 575	1 566
Marxamat tumani	1 246	995	986
Shahrixon tumani	1 849	1 460	1 455
Paxtaobod tumani	1 124	835	832
Xo'jaobod tumani	1 191	957	948
Andijon sh.	7 117	5 978	5 918
Xonobod sh.	469	374	371

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-sentabr holatiga 30,1 foizni (37,6 foiz va 37,8 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,9% (21,0% va 20,9%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,3% (7,8% va 7,8%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 300	1 263	1 255
Sanoat	4 505	4 482	4 428
Qurilish	1 690	1 670	1 658
Savdo	8 041	8 038	8 018
Tashish va saqlash	745	740	729
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 285	1 283	1 281
Axborot va aloqa	419	411	410
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 167	919	918
Boshqa turlar	7 551	2 564	2 537

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 21 370 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 18 430 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	18 430	86,2
Xususiy korxonalar	1 591	7,5
Oilaviy korxonalar	1 111	5,2
Aksiyadorlik jamiyati	37	0,2
Boshqalar	201	0,9

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, 2025-yilning 1-sentabr holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 385 ta korxonalardan 127 tasi qo'shma korxonalar va 258 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 63 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 64 tadan 90 taga, (o'sish 26 taga), sanoat sohasida 156 tadan 170 taga (o'sish 14 taga) va qurilish sohasida 23 tadan 37 taga (o'sish 14 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	385	127	258
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	9	7
Sanoat	170	75	95
Qurilish	37	6	31
Savdo	90	17	73
Tashish va saqlash	11	4	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	1	10
Axborot va aloqa	10	-	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1	3
Boshqa turlar	36	14	22

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 134 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 34,8 foizini tashkil etdi. Shuningdek, viloyatimiz iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (17,1%), Turkiya (14,8%), Qirg'iz Respublikasi (12,7%) va Janubiy Koreya (6,5%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	385	127	258
Xitoy	134	33	101
Rossiya	66	29	37
Turkiya	57	15	42
Qirg'iz Respublikasi	49	12	37
Janubiy Koreya	25	14	11
Hindiston	8	4	4
Singapur	8	2	6
BAA	7	4	3
Belorusiya	6	2	4
Tojikiston	4	2	2
Qozog'iston	4	1	3
AQSH	3	1	2
Ozarbayjon	2	-	2
Boshqalar	12	8	4

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul: Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi	Ijrochi: Z. Sidikov 74 228-29-70 (6060)	Maznil: 170100, Andijon sh., Milliy tiklanish ko'chasi, 36 A
--	--	---